

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗİRLİĞİ
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**SHAHARLAR GEOGRAFIYASI VA GEOURBANISTIKA
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika

Ta'lim sohasi: 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 60530200 – Geografiya

Fan/Modul kodi SG 3606	O'quv yili 2026-2027	Semestr 6	ECTS-Kreditlar 6	
Fan/Modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Xaftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Shaharlar geografiyası va geourbanistika	90	90	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – Mazkur fanning o'qitilishidan maqsad geografiya va iqtisodiy bilim asoslari mutaxassisligi talabalarida shaharlarning shakllanishi, rivojlanishi va joylashuv qonuniyatları hamda xususiyatlariga oid nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanining vazifasi – "shahar" tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, fanning tadqiqot uslubiyoti, uslublari, asosiy tamoyillari, qonuniyatlarini o'rghanish, shaharlarning aholi va ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishdagi o'ziga xos o'rni, mamlakat va rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati haqida nazariy va amaliy bilim berish, fandagi asosiy tushuncha, atama, terminlarning ma'nosini o'rghanish, turli mintqa va hududlarda shaharlar shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga iqtisodiy geografik baho berishni o'rghanishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu: Shaharlar geografiyasining obyekti va predmeti, tadqiqot usullari</p> <p>Shaharlar geografiyasining ijtimoiy va iqtisodiy geografiya fanining alohida tarmog'i sifatida shakllanishi. Uning turli mamlakat va rayonlarda shaharlarning vujudga kelishi, hududiy tarkibi va rivojlanishidagi qonuniyatlarini o'rghanuvchi fan ekanligi. Shaharlarning ishlab chiqarish va aholining hududiy tashkil etilishida tutgan o'rni, fanning obyekti, predmeti, vazifalari. Shaharlar geografiyasining boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni va aloqasi, o'rghanish uslublari. Shaharlarni geografik o'rghanish.</p> <p>2-mavzu: Shaharlarning vujudga kelish tarixi</p> <p>Yer yuzidagi ilk sivilizatsiya o'choqlari va qadimgi shaharlar barpo bo'lgan makonlar, ilk shaharlar. Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Hindistonda vujudga kelgan shaharlar, antik dunyo shaharlari va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni. Shaharlar shakllanishining tarixiy bosqichlari. Turli mintaqalarda shaharlarning tarixiy shakllanishi, Yevropa,</p>			

Osiyo (Sharq), Amerika qit'alarida shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy xususiyatlari. "Shahar" tushunchasi va asosiy mezonlari, ushu tushunchaning turli davr va jahon mamlakatlarida bir xil emasligi.

3-mavzu: Shahar hosil qiluvchi asosiy omillar

Shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillar. Shaharlarning genetik tipologiyasi. Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida geografik o'rinning roli: makro, mezo va mikro geografik o'rinn. Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rni, uning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy o'zgaruvchanligi, "o'lik shaharlar". Shaharlar geografik o'rnining transport, boshqaruv, iqtisodiy, siyosiy va geostrategik ahamiyati. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaharlar rivojlanishi.

4-mavzu: Shaharlar klassifikatsiyasi (tasnifi)

Shaharlar klassifikatsiyasi: oddiy va murakkab klassifikatsiya; shahar va shaharchalarning 8 bosqichga bo'linishi. BMT klassifikatsiyasi. Shaharlar klassifikatsiyasining ahamiyati va mazmuni. Shaharlar piramidasi va uning asosida mamlakat shaharlari rivojlanishidagi asosiy muammolarni aniqlash. O'zbekiston Respublikasi shaharlarini katta-kichikligiga qarab tabaqaqlash, shaharlar iyerarxiyasi. Zipfa-Styuart qonuni, shaharlarni rivojlantirishda uning ahamiyati, "millioner shaharlar". Mamlakatlarning "bosh shahri", megapolis haqida tushuncha. Boshqaruv nuqtai nazaridan shaharlarning turlari: respublika, viloyat va tumanga bo'y sunuvchi shaharlar.

5-mavzu: Shaharlarning funksiyalari

Shaharlarning funksiyalari, funksional o'xshash jihatlari va farqlari, shaharlarning funksional tiplari va katta-kichikligi o'rtasidagi qonuniy aloqadorlik. Shaharlarni funksional tiplarga ajratish usullari, yirik ko'p funksiyali shaharlar, keng tarmoqli sanoat markazlari, sanoat, transport, rekreatsiya, ilm-fan va boshqa sohalarga ixtisoslashgan shaharlar. O'zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo'yicha guruhlarga ajratilishi. Poytaxt shaharlar, ularni tanlash va rivojlantirishga qo'yilgan talablar. Poytaxt shaharlar muammolari. Poytaxt shaharlar geografik o'rnining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va geostrategik ahamiyati. Yirik poytaxt shaharlar rivojlanishini nazorat qilish bo'yicha jahon tajribalari. Global shaharlar va ularni ajratish, tasniflash (S.Sassen, N.Sluka va boshqalarning ishlari). Xalqaro ixtisoslashuv-moliyaviy (London, Jeneva, Syurix), iqtisodiy (New-York, Myunxen, Los-Anjeles), siyosiy (Vena, Gaaga, Amsterdam), turizm (Singapur, Kuala-Lumpur) markazlari. Global shaharlarning jahon taraqqiyotida tutgan o'mi va rivojlanish muammolari. Bozor munosabatlariiga o'tish davrida shaharlar funksiyalarining o'zgarishi.

6-mavzu: Shaharlarning hududiy tizimlari

Shaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari. Shahar aglomeratsiyalari vujudga kelishining ikki turi

(G.Lappo metodikasi). Aglomeratsiya “yadrosi” va “yo’ldosh shahar” haqida tushuncha. Jahondagi yirik shahar aglomeratsiyalari va ularning shakllanish mexanizmlari. Shaharlarning dinamik rivojlanish modellari (J.Forrester, K.Doksiadis, N.Ladovskiy va boshqalar). Konurbatsiya, megalopolislardan va urbanizatsiyalashgan hududlar, zona va rayonlar, ularning vujudga kelish bosqichlari. Jahonning yirik megalopolislari (Tokaydo, BosVash, ChiPits, San-San va boshqalar), ular rivojlanishining ijobiy va salbiy jihatlari, boshqarish va tartibga solish yo’llari.

O’zbekistonning yirik shahar aglomeratsiyalari. Shahar aglomeratsiyalari – o’ziga xos sotsial, innovatsiya, infratuzilma, iqtisodiy, geoekologik va nozogeografiq muhit sifatida. O’zbekistonda shaharlar hududiy tizimlarining shakllanish va rivojlanish muammolari. Yirik shahar tizimlarining iqtisodiy, sotsial, ekologik, demografik, transport, shahar qurilishi va boshqa muammolari, ularni hal etish usullari.

7-mavzu: Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari

Urbanizatsiyaning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ekanligi, asosiy va yordamchi ko’rsatkichlari (V.Pokshishevskiy, B.Garne, E.Persik va boshqalarning qarashlari). D.Djibbsning urbanizatsiyaning “bosqichli rivojlanish” sxemasi. Yevropa mamlakatlardagi klassik urbanizatsiya va sharqona urbanizatsiya, “real” va “soxta urbanizatsiya” tushunchasi, jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasiga ko’ra guruhlanishi. Urbanizatsiyaning sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va ekologik muammolari. O’zbekistonda urbanizatsiyaning rivojlanish tarixi va bugungi holati, muammolari, uning hududiy xususiyatlari, A.Soliyev, O.Ota-Mirzayev, A.Qayumov, Z.Rayimjonov, E.Ahmedov va boshqalarning O’zbekistonda urbanizatsiya jarayoni va shaharlar rivojlanishiga qo’shgan hissalar. Urbanizatsiya va geoekologiya.

8-mavzu: Shaharsozlik va shaharlarning bosh rejasi

Shaharsozlik va rayon planirovkasi haqida tushuncha. Shaharlarning bosh rejasi, uni tuzishdagi asosiy vazifa va maqsadlar. Shaharsozlik g’oyalarining rivojlanishi: shahar va shahar aglomeratsiyalarini joylashtirish va rivojlantirish sxemalari (V.Kristaller, A.Lyosh, P.Izard, X.Xagget, A.Kol, X.Xoyt, P.Polyan va boshqalarning modellari), shahar planlari (Katta London, Katta Parij, Tokio, Katta Toshkent va boshqalar).

Shahar va shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi. Hududni funksional zonalarga, sektorlarga ajratish. Shahar aholisini hududiy tashkil etish. Shaharda ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish tarmoqlarini joylashtirish. ”Optimal shahar” tushunchasi va mezonlari; yirik shahar va aglomeratsiyalarning hududiy kengayishini nazorat qilish, tartibga solish va bashorat qilish. Bozor munosabatlari sharoitida shahar qurilishi masalalari.

9-mavzu: O’zbekiston shaharlari geografiyasi

O’zbekistonning turli mintaqalarida shaharlarning vujudga kelish va

rivojlanish xususiyatlari. Respublika shaharlaring shakllanishida relyef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar. O'zbekiston shaharlari rivojlanishining asosiy muammolari. Iqtisodiy rayonlarning shahrlar bilan ta'minlanishi. Shahar va shaharchalarning funksiyalari va mamlakat taraqqiyotida tutgan o'rni. Viloyat shaharlarini aholi soniga ko'ra tasniflash. Yangi shaharchalar (agroshaharlar), ularning rivojlanish muammolari. O'zbekiston va uning hududlarida urbanizatsiya jarayoni, rivojlanish bosqichlari.

Respublikada shaharlarni hududiy tashkil etish, rivojlanishini takomillashtirish va boshqarish, unga oid Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, O'zbekistonda shahar qurilishi masalalari va yirik shaharlarning planlari.

O'zbekiston shahar va shaharchalari toponimikasi. Nomialarning kelib chiqish tarixi. Shahar nomlarining o'zarishi va bu boradagi hukumat qarorlari.

10-mavzu: Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari

Iqtisodiy rayon shahar va shaharchalari tarkibi va tavsifi, shaharlashish darajasi, shakllanish tarixi. Shaharlar vujudga kelishidagi asosiy shart-sharoit va omillar, shaharlar shakllanishi va rivojlanishida "havza" omili (Chirchiq va Ohangaron havzasini shaharlari), "poytaxtlik" omili. Iqtisodiy rayon shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibi. Shahar hosil qiluvchi tarmoqlari. Toshkent shahrining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, ilmiy-texnik, innovatsion, ishlab chiqarish va demografik salohiyati. Toshkent aglomeratsiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari. Angren maxsus industrial zonasining shahar rivojlanishiga ta'siri.

11-mavzu: Farg'ona mintaqasi shaharlari

Farg'ona mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o'rni. Shaharlar tarkibi va tavsifi. Tarixiy shakllanish bosqichlari. Shaharlar shakllanishida tog'oldi konussimon deltalarning roli. Rayonning shahrlar bilan ta'minlanish darajasi, shaharlar tasnifi, ixtisoslashuvi. Vodiy shaharlari iyerarxiysi, "yuzminglik shaharlar". Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon shaharlari planlari. Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi.

12-mavzu: Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni tavsifi,^{*} maydoni, aholisi, shahar va shaharchalari. Shaharlar vujudga kelishida cho'lning o'zlashtirilish omili, "eski" va "yangi" shaharlar, "resurs" shaharlari. Rayon shaharlarning rivojlanishida Jizzax maxsus erkin iqtisodiy zonasining roli. Viloyat va tumanga bo'y sunuvchi shaharlar. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlarning rivojlanish muammolari va istiqbollari.

13-mavzu: Zarafshon mintaqasi shaharlari

Zarafshon iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalar soni, ularning

o‘zgarishi, tashkil topish vaqt va shart-sharoitlari. Shaharlar shakllanishida sug‘orma dehqonchilik, Buyuk Ipak yo‘li, geografik o‘rinning ahamiyati. Rayon shaharlarining cho‘l va voha sharoitida rivojlanishi. Mintaqa shaharlarining urbanistik va hududiy tarkibi, shahar va shaharchalarni tiplarga ajratish. Samarcand viloyati shaharlariga ta‘rif. Navoiy viloyati shaharları. Buxoro viloyati shaharları tarkibi. Viloyat markazlarining boshqaruv roli. Ko‘p funksiyali va bir funksiyali shaharlar. Yangi shaharchalarning rivojlanish muammolari.

14-mavzu: Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari

Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari umumiy tavsif. Ularning vujudga kelish tarixi, shart-sharoit va omillari. Respublika urbanistik tarkibida tutgan o‘rni. Shaharlarning hududiy joylashuvi, shaharlar zichligi. Shaharlarning ixtisoslashuvi. Mintaqaning katta, o‘rta, kichik shaharlari, agroshaharlar. Termiz shahri: iqtisodiy, madaniy, ma’muriy, geostrategik ahamiyati. Rayon taraqqiyotida shaharlarning tutgan o‘mi va rivojlanish muammolari.

15-mavzu: Quyi Amudaryo rayoni shaharlari

Quyi Amudaryo mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida shaharlarning tutgan o‘mi. Shaharlarning kelib chiqish tarixi, urbanistik tarkibi va tavsifi. Shaharlar shakllanishida irrigatsiya tarmoqlarining roli. Rayon shaharları klassifikasiyası, shaharlar piramidi. Rayonda shaharlar zichligi, shaharlar tasnifi, funksiyaları va funksional tiplarga ajratish. Quyi Amudaryo ekologik vaziyatining shaharlar rivojlanishiga ta’siri.

III. Amaliy mashg‘ulotlarni bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Shaharlarning geografik o‘rniga iqtisodiy geografik baho berish.
2. “Shahar” tushunchasi va asosiy mezonlari.
3. Jalon shaharlarining genetik tipologiyasini tuzish va izohlash.
4. Shaharlar shakllanishining tarixiy bosqichlari.
5. Shaharlar shakllanishiga ta’sir etuvchi tabiiy, iqtisodiy, siyosiy omillarni aniqlash.
6. Shaharlar klassifikasiyasining ahamiyati va mazmuni.
7. Shaharlarni funksional tiplarga ajratish usullari.
8. O‘zbekiston shaharlarini aholi soniga ko‘ra tasniflash.
9. O‘zbekiston shaharlarini piramidasini tuzish.
- 10.O‘zbekiston va viloyatlar shaharlarini funksiyalariga ko‘ra guruhlash.
- 11.O‘zbekiston shaharlarini funksional tiplarga ajratish.
- 12.Global shaharlarning jalon taraqqiyotida tutgan o‘mi va rivojlanish muammolari.
- 13.Jalon poytaxt shaharlarini o‘rganish va xaritadan aniqlash.
- 14.Jahonning yirik shahar aglomeratsiyalarini aniqlash va katta-kichikligiga ko‘ra guruhlashtirish.

15. Konurbatsiya, megalopolislar va urbanizatsiyalashgan hududlar, zona va rayonlar, ularning vujudga kelish bosqichlari.
16. Urbanizatsiyaning sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va ekologik muammolari.
17. O'zbekiston yirik va katta shaharlari aholisining o'sish dinamikasini chizmada tasvirlash va tushuntirish.
18. Jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasini aniqlash va tiplarga ajratish.
19. O'zbekiston va viloyatlar urbanizatsiya darajasini yillar bo'yicha o'zgarishini chizmada tasvirlash va tahlil qilish.
20. Shahar aholisini hududiy tashkil etish.
21. Shaharda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini joylashtirish.
22. "Siz kelajak shaharlarini qanday tasavvur qilasiz?" mavzusida "optimal" shahar sxemasini chizish.
23. O'zbekiston iqtisodiy rayonlari shaharlari.
24. O'zbekiston iqtisodiy rayonlari va viloyatlar shahrlar zichligini aniqlash.
25. Toshkent aglomeratsiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari.
26. Shaharlar vujudga kelishida cho'Ining o'zlashtirilish omili, "eski" va "yangi" shaharlar, "resurs" shaharlari.
27. Shaharlar shakllanishida sug'orma dehqonchilik, Buyuk Ipak yo'li, geografik o'rinning ahamiyati.
28. Shaharlarning ixtisoslashuvi. Mintaqaning katta, o'rta, kichik shaharlari, agroshaharlar.
29. Yangi shaharchalarning rivojlanish muammolari.
30. Rayonda shaharlari zichligi, shaharlар tasnifi, funksiyalari va funksional tiplarga ajratish.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limi baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarini tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatları to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Shaharlarning ishlab chiqarish va aholining hududiy tashkil etilishida tutgan o'mi

2. Yer yuzidagi ilk sivilizatsiya o‘choqlari va qadimgi shaharlar barpo bo‘lgan makonlar
3. Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Hindistonda vujudga kelgan shaharlar
4. Turli mintaqalarda shaharlarning tarixiy shakllanishi
5. Shaharlarning vujudga kelishidagi asosiy tabiiy va sotsial-iqtisodiy omillar
6. Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishida geografik o‘rinning roli
7. Shaharlar geografik o‘rnining transport, boshqaruv, iqtisodiy, siyosiy va geostrategik ahamiyati
8. Shaharlar klassifikatsiyasi
9. Mamlakatlarning “bosh shahri”, megapolis haqida tushuncha.
10. Boshqaruv nuqtai nazaridan shaharlarning turlari: respublika, viloyat va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar.
11. O‘zbekiston shaharlarining funksional tiplari bo‘yicha guruhlarga ajratilishi.
12. Poytaxt shaharlar geografik o‘rnining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va geostrategik ahamiyati.
13. Shaharlar aglomeratsiyasi, ularning vujudga kelish shart-sharoitlari, shakli va mezonlari.
14. Jahondagi yirik shahar aglomeratsiyalari va ularning shakllanish mexanizmlari.
15. O‘zbekistonning yirik shahar aglomeratsiyalari.
16. Urbanizatsiyaning sotsial-iqtisodiy, demografik, transport va ekologik muammolari.
17. Shaharda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini joylashtirish.
18. Respublika shaharlarining shakllanishida relyef, iqlim, gidrografik va boshqa omillar.
19. O‘zbekiston shahar va shaharchalari toponimikasi.
20. Toshkent shahrining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rnii, ilmiy-texnik, innovatsion, ishlab chiqarish va demografik salohiyati.
21. O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari shaharları.
22. O‘zbekiston iqtisodiy rayonlari va viloyatlar shaharlar zichligini aniqlash.
23. Toshkent aglomeratsiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlari.
24. Shaharlarning vujudga kelishida cho‘lning o‘zlashtirilish omili, “eski” va “yangi” shaharlar, “resurs” shaharlar.
25. Shaharlarning shakllanishida sug‘orma dehqonchilik, Buyuk Ipak yo‘li, geografik o‘rinning ahamiyati.
26. Shaharlarning ixtisoslashuvi. Mintaqaning katta, o‘rta, kichik shaharlar, agroshaharlar.
27. Yangi shaharchalarning rivojlanish muammolari.

	<p>28. Jahon davlatlarining urbanizatsiya darajasini aniqlash va tiplarga ajratish.</p> <p>29. O'zbekiston va viloyatlar urbanizatsiya darajasini yillar bo'yicha o'zgarishini chizmada tasvirlash va tahlil qilish.</p> <p>30. Shahar aholisini hududiy tashkil etish.</p>
3.	<p>V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - shaharlar geografiyasi fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida shaharlar geografiyasining tadqiqot obyekti va predmeti; - asosiy termin, tushunchalari, shaharlarning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahamiyatni; - shaharlarning tarixiy shakllanishi va genetik tiplari, shahar aglomeratsiyalari, megapolis, konurbanizatsiya haqida <i>bilimga</i>; - shaharlar klassifikatsiyasi va funksional tipologiyasini; - yirik shaharlar rivojlanishi va urbaniyazatsiya jarayonlarini; - shaharlarning hududiy tizimi va geoekologik muammolarini, shaharlar geografiyasini o'rghanishda ilmiy tadqiqot usullari; - zamonaviy geografik axborot tizimlarini bilishi va undan foydalana olish <i>ko'nikmasiga</i>; - shaharlarni tasniflash va turlarga ajratish; - urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qila olish; - shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari va istiqbollarini aniqlash <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishslash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihibar; - jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihibar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p>VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Soliyev A.S. Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. Toshkent: "Noshir". 2018. 2. Kadirov M.A. Shaharlar geografiyasi. Samarqand-2019

	<p>IX. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>3. Ахмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида.- Т., 2004.</p> <p>4. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: тарих ва хозирги замон: Халқаро илмий – амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2007.</p> <p>5. Tashtaeva S. Shaharlar geografiyasi. O'quv-uslubiy majmua. T., 2014, O'zMU ichki tarmoq'i.</p> <p>6. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Т.: Университет, 2002. – 125 с.</p> <p>7. Перцик Е.Н. География городов.(Геоурбанистика). -М.1991.</p> <p>8. Пивоваров Ю.А. Россия и мировая урбанизация / Антропокультурная и пространственная динамика/. – Нальчик: Полиграфсервис, 2007. – 334 с.</p> <p>9. Солиев А.С., География городов республик Средней Азии, Часть 1.- Т., 1980, Часть-2.- Т., 1980.</p> <p>10. Солиев А.С. Проблемы расселения и урбанизации в республиках Средней Азии. -Т.: Фан, 1991.</p> <p>Axborot manbalari:</p> <p>11. www.devedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish tadqiqotlari markazi rasmiy sayti.</p> <p>12. www.stat.uz – O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.</p> <p>13. www.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti.</p> <p>14. www.unilibrary.uz – O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi</p> <p>15. www.lib.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti kutubxona web sayti.</p> <p>16. www.geografiya.uz – Geografiya sohasiga qiziquvchilar uchun ilmiy-ommabop sayt.</p>
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil " <u>29</u> " <u>avgust</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan.
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>J.A.Namozov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrasи dotsenti, g.f.f.d., dots.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>F.T.Rajabov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti dekani, g.f.f.d. dots.</p> <p>N.I.Safarova – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasи dotsenti, g.f.n.</p>